

## O'RTA ASR SHAHARLARINING DEMOGRAFIK HOLATI, SHAHARLARNING KENGAYISHI, AHOLINING IJTIMOYIY TARKIBI

Gulyamov Alisher Azizovich

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Tarix va filiologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

[aligulyamov1997@gmail.com](mailto:aligulyamov1997@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15059716>

**Annotatsiya.** O'rta asr shaharlarining demografik holati, shaharlarning kengayishi va aholining ijtimoiy tarkibi haqida yozilgan maqolada o'rta asrlar davrida shaharlar rivojlanishining asosiy omillari, aholining o'sishi va shaharlar hududidagi ijtimoiy qatlamlar tahlil qilinadi. Maqolada, shaharlarning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, shaharlar ichidagi savdo, hunarmandchilik va dehqonchilik faoliyatlarining rivojlanishi orqali aholining soni ortgani, shuningdek, bu o'sishning sabab va natijalari ko'rsatiladi. Shaharlarning kengayishi natijasida, yangi hududlar va tumanlar shakllanib, ijtimoiy-siyosiy tuzilma yanada murakkablashgan.

**Kalit so'zlar:** O'rta asr, shaharlar, demografik holat, shahar kengayishi, aholining ijtimoiy tarkibi, iqtisodiy rivojlanish, savdo, hunarmandchilik, dehqonchilik, zodagonlar, savdogarlar, ijtimoiy qatlamlar, ijtimoiy tuzilma, tarixiy tahlil, shaharlarning ahamiyati.

### DEMOGRAPHICS OF MEDIEVAL CITIES, URBAN EXPANSION, SOCIAL COMPOSITION OF THE POPULATION

**Abstract.** The article on the demographics of medieval cities, urban expansion, and social composition of the population analyzes the main factors of urban development in the Middle Ages, population growth, and social strata in urban areas. The article shows the economic and political significance of cities, the increase in population through the development of trade, crafts, and farming activities within cities, as well as the causes and results of this growth. As a result of the expansion of cities, new territories and districts were formed, and the socio-political structure became more complex.

**Keywords:** Middle Ages, cities, demographics, urban expansion, social composition of the population, economic development, trade, crafts, farming, nobility, merchants, social strata, social structure, historical analysis, the importance of cities.

### ДЕМОГРАФИЯ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ГОРОДОВ, РАСШИРЕНИЕ ГОРОДОВ И СОЦИАЛЬНЫЙ СОСТАВ НАСЕЛЕНИЯ

**Аннотация.** В статье, посвященной демографической ситуации средневековых городов, расширению городов и социальному составу населения, анализируются основные факторы развития городов в Средние века, рост населения и социальные слои в городах.

*В статье показано экономическое и политическое значение городов, рост населения за счет развития торговли, ремесел и сельскохозяйственной деятельности в городах, а также причины и результаты этого роста. В результате расширения городов образовались новые районы и округа, усложнилась общественно-политическая структура.*

**Ключевые слова:** Средние века, города, демография, городская экспансия, социальный состав населения, экономическое развитие, торговля, ремесла, сельское хозяйство, дворянство, купцы, социальные слои, социальная структура, исторический анализ, значение городов.

O'rta asr G'arbiy Yevropa shaharlari aholisi xususidagi barcha ma'lumotlar nisbiy bo'lib, bu davrda aholini tashkiliy ravishda ro'yxatga olish yo'lga qo'yilmagan. Ayrim holatlarda olingan ro'yxatlar uy, xonadon hisobi asosida amalga oshirilgan. Bu ro'yxatlar cherkovlardagi, ayrim kvartallarda hisobga olishlar, harbiy xizmatga olish, soliqqa tortish nuqtai-nazaridan "o'choqlar", "uylar" asosida tuzilgan va taxminiy amalga oshirilgan. Natijada, tadqiqodchilar shahar aholisini gipotetik tarzda hisoblaydilar. Taxminanlar uy xo'jaliklari yetakchilari soniga qarab aholini hisoblash ulardan foydalanganlar.

G'arbiy Yevropa shaharlari aholisi soni xususida turli ma'lumotlar mavjud bo'lib, ilk o'rta asrlarda Fransiya hududida agar 5 ming kishi yashasa, u katta shahar sifatida baholangan.

Shuningdek, XII-XIII asrlarda shaharlar 10 ming aholiga ega bo'lgan. bu kabi aholi soni asosan Rim imperiyasi davrida mavjud bo'lgan shaharlarning qayta tiklanganlarida bo'lib, bu shaharlar maydoni 5-30 gektardan oshmagan (Bu Tuluza-90 ga, Mets-70 ga shaharlariga ta'luqli emas). Bu davrga oid yirik shaharlar aholisi soni esa, 15-20 ming kishini tashkil etgan. yirik shahalar bilan birga shaharchalar yoki kichik shaharlar ham ayniqsa, XII-XIII asrlarda taraqqiy etib katta shaharlarga aylanib brganligini ko'rish mumkin. Masalan, G'arbiy Yevropaning XII asrda vujudga kelgan Albi, Klermon, Noyon va boshqa bir qator shaharlari maydoni 1,5-3 ga maydonni egallagan, aholisi taxminan ming kishi atrofida bo'lgan bo'lsa, XIII asr oxirida bu shaharlar aholisi 10 mingdan oshib, maydoni 40 ga ni tashkil qilgan<sup>1</sup>.

Shaharlarning kengayishi yoki qisqarishi (aholisi, maydoni) albatta siyosiy hayotga bog'liq bo'lgan. masalan Vestfaliyada 1180-1240 yillarda shaharlar maydoni 5-10 ga ni tashkil qilgan bo'lsa, 1240-1350 yillarda bu ko'rsatgichlar bir qadar pasayib ketgan. Fransuz urbanistlari (J.L. Goff fikriga ko'ra) ma'lumotlarida 10 ming aholiga ega bo'lgan shaharlarda odatda uchta monastr bo'lgan.

<sup>1</sup> Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 2. Жизнь города и деятельность горожан. – М.: Наука, 1999. – С. 239.

Fransiyaning Provans o'lkasi shaharlari demografiyasi xususida olimlar fikr bildirib, 300 ta o'choqli mayda shaharlar ko'pligi aniqlangan. Shu sababli bu shaharchalarda aholi 1500-1800 kishi atrofida yashagan degan xulosalarga kelingan<sup>2</sup>. Bu davr shaharlari unchalik katta bo'lmagan deb xulosa qilish mumkin.

Pireney yarim orolida ayniqsa mayda shaharlar ko'p bo'lib, 1276 yilda Ispaniyaning Soria viloyatida 238 ta shahar markazlar mavjudligi qayd qilingan. Ular aholisi 160-200 kishini tashkil qilgan bo'lib, viloyat markazi Soria shahri aholisi bu vaqtda 800 kishidan iborat bo'lgan. shaharlarning kengayib borishi atrof qishloqlardan feodallar zulmidan qochib kelganlar, xonavayron bo'lgan erkin dehqonlar, savdogarlar, hunarmandlar hisobidan hududi kengayib, aholisi ko'payib borgan. Fransiyaning Arras, Mets, Reyms shaharlari XIII asrda 10 ming aholiga ega bo'lgan bo'lib, keyingi asrlarda ularning aholisi migrantlar hisobidan kengayib borgan, ular ushbu shaharlar atrofi bo'ylab 40 km radiusda ko'chib kela boshlaganlar<sup>3</sup>. Shaharlarga intilish ular rivojida katta ahamiyat kasb etgan deb xulosa qilish mumkin.

1275-1315 yillar oralig'ida G'arbiy Yevropaning o'rta asr shaharlari demografik o'sishining cho'qqisiga chiqqan. Bu davrda gigant shaharlarda 50 ming va undan ko'p aholi, juda katta shaharlarda 25-50 ming atrofida, yirik shaharlarda 10-25 ming, kichik shaharlarda esa 2 ming va undan ham kam ahaoli yashagan. Gigant shaharlar sirasiga asosan Italiyaning Florensiya, Milan, Venetsiya, Genuya shaharlari, Ispaniyaning Sevilya, Kordova va Granada shaharlari kirgan. Pireney va Alp tog'laridan shimolda faqat bir shahar Parij ushbu kategoriyaga mansub bo'lgan xolos. Ikkinchi toifa juda katta shaharlar toifasiga ham asosan Italidagi shaharlar ko'proq bo'lib hisoblanadi. Masalan, Paduya, Bolonya, Lukka, Rim, Neapol, Verona, Paviya va boshq. ..., Pireneydagi uchta shahar Barselona, Valensiya, Lissabon kirgan bo'lsa, Shimolda Lyubek, Kyoln, Nyurnberg, XV asr boshlarida esa, bu guruhga London, Bryugge, Gent, Bryussel, Tuluza, Bordo, Avinon, Ruan, Lion kabi shaharlar ham qo'shilgan. Uchinchi kategoriya ya'ni, yirik shaharlarga Italiyadan Kremona, Mantuya, Modena, Parma, Orveto, Perudja, Siyena, Pistoyya, Piza, Bari, Messina, Palermo kirgan bo'lsa, Ispaniyadan SaragosaValyadolid, Salamanka, Burgos shaharlari, Niderlandiyadan Amen, Arras, Due, Ipr, Lill, Valansen, Luven, Lej, Antverpen shaharlari, Fransuz shaharlaridan Bove, Shartr, Mets, Dijon, Lionlar, Nemis shaharlari Frankfurt-Mayn, Mayns, Shpayer, Vorms, Strasburg, Bazel, Gamburg, Myunster, Magdeburg, Rostok, Augsburg, Ulm, Syurix, Erfurt va boshqalarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Ammo, kichik shaharlar soni G'arbiy Yevropada juda ko'p

<sup>2</sup> Сванидзе А.А. Средневековые города Западной Европы: некоторые общие проблемы // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 1. Феномен средневекового урбанизма. - М.: Наука, 1999. - С. 31.

<sup>3</sup> Стоклицкая-Терешкович В.В. Основные проблемы истории средневекового города X-XV вв. - М.: Издательство Социально-экономической литературы, 1960. - С. 79.

bo'lib, biz ko'rib chiqayotgan tarixiy davrda shahar aholisining 60% kichik shaharlarda istiqomat qilgan<sup>4</sup>. Kichik shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ta'siri katta bo'lganlini anglash qiyin bo'lmasa kerak.

Mayda shaharlar cherkovlar qoshida ham vujudga kelgan bo'lib, XI-XII asrlarda nisbatan G'arbiy Yevropaning kichik hududi bo'lgan Italiyada 278 ta cherkov yetakchiligidagi yepiskoplarga qarashli shaharlar mavjud bo'lgan. ular keyinchalik ma'muriy va madaniy markazlarga aylanganlar. G'arbiy Yevropada shaharlarning tez sur'atda ko'payib borishi, eng avvalo demografik holat bilan bog'li bo'lgan. masalan, Germaniyada XIII asrda 400 ga yaqin, XIV asrda yana 300 ga yaqin shaharlarning vujudga kelishi yuqoridagi fikr-mulohazalarni asoslashga xizmat qiladi. Shuningdek, XII asrning ikkinchi yarmi – XIV asrning boshlarida Fransiyada ko'plab yangi shaharlarning paydo bo'lishini ham demografik holat bilan bog'liq bo'lgan. aholining shaharlarga to'planishi natijasida XIV asrda Toskaniya viloyati shaharlarida aholining 26% to'plangan. Flandriya grafligidagi uchta yirik shaharda aholining 18% to'plangan<sup>5</sup>. Yirik shaharlarning ahamiyati unchalik katta bo'lmaganligini ko'rish mumkin.

Shaharlar aholisi mintaqalar va davlatlarda turlicha bo'lgan. Italiyada biz ko'rib chiqayotgan XI-XIII asrlarda yirik shahar maqomini olish uchun kamida 20 ming aholiga ega bo'lish talab etilsa, Fransiyada bu ko'rsatkich 5-10 ming aholini tashkil qilgan. bu ikki mamlakatda shahar maqomiga ega bo'lish uchun manzilgohda 2 ming kishi istiqomat qilishi lozim hisoblangan. Ammo, xuddi shu tarixiy davrda Germaniyada tarixiy adabiyotlarda 4 ming shahar borligi qayd qilingan. Faqatgina Nyurnberg va Lyubekda 20-25 ming aholi istiqomat qilgan. shuningdek, 20 ta shahar yirik shahar maqomida bo'lib, ularda 10 ming atrofida aholi mavjud bo'lgan. o'rtacha shaharlar soni 200 tadan oshiqroq bo'lib, ularda 2-10 ming aholi mavjud bo'lgan. Germaniya uchun kichik shahar maqomi 500 atrofidagi aholi manzilgohiga nisbatan ishlatilganligi tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan<sup>6</sup>. Kichik qishloqlar katta qishloqlardan kam farqlangan deb xulosa qilish mumkin.

XI-XIII asrlar G'arbiy Yevropada shaharlarning vujudga kelishigina emas, ular aholisining tinimsiz ko'payib borishi bilan ham xarakterlanadi. Ammo, XIII asr oxiridan boshlab shahar aholisi sonining tez ko'payishi pasayib borgan. Shunday bo'lsada, XIII-XIV asrlarda G'arbiy Yevropa shaharlari aholisi o'zining maksimum darajasiga yetgan. Shu davrgacha shahar kengashlari bir necha bor shahar maydonini kengaytirish, yangi vujudga kelgan kvartallarni qal'a devorlari bilan o'rab olishga majbur bo'lganlar.

<sup>4</sup> Берман Г.Дж. Западная традиция права: эпоха формирования. / пер. С англ. – 2-е изд. – М.: Изд-во МГУ: Издательская группа ИНФРА-М – НОРМА, 1998. – С. 351.

<sup>5</sup> Ястребицкая А.И. Средневековая культура и город в новой исторической науке. Учебное пособие. М.: 1995. – С. 121.

<sup>6</sup> Курбонгадиева Р. Ўрта асрлар тарихи. Ўқув методик қўлл. Пед. Ин-тларининг тарих фак. студ. учун ўқув методик қўлл.– Т.: Ўқитувчи, 1991. – Б. 127.

XIV asrdan boshlab, demografik tushkunlik, iqtisodiy pasayish kuzatila boshlagan. Shu vaqtdan boshlab, ko'plab shaharlar maydoni qisqarganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin. Shaharlar aholisining kamayishiga mahalliy erkinliklarning qisqarishi, ekologik ofatlar, epidemiyalar, haddan tashqari moliyaviy zulm ortidan kelib chiqqan iqtisodiy notinchliklar sabab bo'lgan. 1377 yildagi ma'lumotlarga ko'ra, Angliyada aholining 10% shaharlarda istiqomat qilgan bo'lsa, asr so'nggida shahar aholisi salmog'i XIII asr boshlari darajasiga kamayib ketgan. Eks va Provans o'lkalarida XIII boshlaridan XIV asr o'rtalariga qadar shahar aholisi ikki barobar ko'paygan bo'lsa, yigirma yil (1346-1366 yy) oralig'ida turli ofatlar sababli aholi ikki marta qisqarib ketganligini ko'rish mumkin<sup>7</sup>. O'rta asrlar sharoitida shahar aholisi o'sishi stabil bo'lmagan.

## REFERENCES

1. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
2. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
3. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
4. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
5. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO OCHILGAN MUZEYLARNING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 248-256.
6. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). O 'RTA OSIYO OLIMLARINING KARTOGRAFIK MEROSI. *Modern Science and Research*, 4(1), 221-227.
7. Srojeva, G., Gulyamov, A., & Haqqulov, M. (2025). XVII ASRDA BUXORODA ABDULAZIZXON MADRASASINING QURILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 471-478.

<sup>7</sup> Сванидзе А.А. Средневековые города Западной Европы: некоторые общие проблемы // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 1. Феномен средневекового урбанизма. - М.: Наука, 1999. - С. 32.

8. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
9. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
10. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
11. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
12. Srojeva, G., Haqqulov, M., & Gulyamov, A. (2025). KUDZULA KADFIZ BOSHCHILIGIDA KUSHON IMPERIYASIGA ASOS SOLINISHI VA BU IMPERIYANING RAVNAQI. *Modern Science and Research*, 4(2), 109-117.
13. Haqqulov, M., Gulyamov, A., & Srojeva, G. (2025). JADIDLARNING 1916 YILDAGI XALQ QO'ZG'OLONIDA TUTGAN O'RNI. MILLIY HUKUMAT-TURKISTON MUXTORIYATI VA UNING FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 100-108.
14. Gulyamov, A., Srojeva, G., & Haqqulov, M. (2025). BUXORO MUZEYINING II JAHON URUSHIGACHA BO 'LGAN DAVRDAGI FAOLIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 92-99.
15. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
16. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
17. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
18. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
19. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
20. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(11), 154-159.

21. Xakkulov, M., & Kosimov, U. (2025). HISTORY OF MILITARY WORK IN THE EMIRATE OF BUKHARA. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 319-325.
22. Haqqulov, M., & Sadulloyeva, M. (2025). IMOM BUXORIYNING “AL-JOME’AS SAHIH” ILMIY AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(2), 472-476.
23. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
24. Haqqulov, M. (2025). YANGI DAVRDA AVSTRIYA (GABSBURGLAR) IMPERIYASINING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI (XVI-XVIII ASRLAR). *Modern Science and Research*, 4(2), 834-842.
25. Yarashova, M., Yuldosheva, F., & Haqqulov, M. (2025). TA’LIM OLISH TARTIBI: YANGILANISH VA O’ZGARISHLAR. MASOFAVIY, DUAL VA INKLYUZIV TA’LIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 73-80.
26. Haqqulov, M., Yarashova, M., & Yuldosheva, F. (2025). TARIXIY KARTOGRAFIYANING ASOSIY YO ‘NALISHLARI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI. *Modern Science and Research*, 4(2), 81-91.
27. Obid o'g'li, B. O., & Zaynievich, O. M. (2024). BUXORO VA JUNG'OR XONLIKLARI O'RTASIDA SIYOSIY MUNOSABATLAR TARIXI.
28. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
29. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
30. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
31. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
32. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.

33. Gadayeva Mohigul Muxamedovna, Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, & Muyiddinov Bekali. (2025). TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863055>
34. Muyiddinov Bekali, Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, & Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863114>
35. Gulyamov, A., Yarashova, M., & Karimov, S. (2025). O 'RTA ASRLARDA G 'ARBIY YEVIROPADA SHAHAR-QAL'A, SHAHAR-CHEKOV, SAVDO O 'BYEKTI AHAMIYATIGA OID SHAHARLARNING VUJUDGA KELISHI. *Modern Science and Research*, 4(3), 122-131.
36. Muyiddinov Bekali. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA DASTLABKI ARXIVLARNI SHAKLLANISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14902908>
37. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Teshayeva Shahzoda Rahimovna. (2025, fevral' 19). QADIMGI MISRDAN DARAK BERUVCHI TUTANXAMON - SIRLI FIR'AVN QABRINING TOPILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14894992>
38. Srojeva, G. (2024). XX-ASRNING 30-YILLARIDA OSIYO MAMLAKATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
39. Vahobovna, S. G. (2024). XX-ASRNING 30-YILLARIDA OSIYO MAMLAKATLARI.
40. Vahobovna, S. G. (2024). TALIM SOHASIDAGI ISLOHATLAR ECHIMI, NATIJALARI VA MUAMMOLARI.
41. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlari Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
42. Vahobovna, S. G. (2024). O'zbekiston Olimlari Inson Falsafasi Haqidagi Qarashlari. *Journal of Innovation in Volume*, 2(8).
43. Srojeva, G. (2025). BO'RIBOY AHMEDOVNING "TARIXDAN SABOQLAR" ASARIDA SHAYBONIYLAR DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI. *Modern Science and Research*, 4(2), 1227-1236.
44. Srojeva, G., & Idiyeva, S. (2025). MANG'ITLAR SULOLASINING BUXORO AMIRLIGIDA HOKIMIYATNI EGALLASHI VA MANG'ITLAR DAVRIDA AMIRLIKDAGI IJTIMOY-IQTISODIY MADANIY HAYOT. *Modern Science and Research*, 4(2), 830-836.
45. Sayfutdinov, F. (2023). ANALYSIS OF DATA ON LAND OWNERSHIP AND LIVESTOCK FARMING OF KARAKALPAKS. *Modern Science and Research*, 2(10),

650–657. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25727>

46. Sayfutdinov Feruz Ilniyazovich, . (2023). USING GIS SOFTWARE AND THE IMPORTANCE OF DIGITAL HISTORY IN THE STUDY OF HISTORY . *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 31–33. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-06>
47. Sayfutdinov, F. (2023). THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING HISTORY. *Modern Science and Research*, 2(10), 719–723. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24678>
48. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O 'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2 (8), 111–114.
49. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
50. Rahmonova, S., Xayrullayev, U., & Sayfutdinov, F. (2025). “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ”НИНГ МОҲИАТИ, ТАРИХИЙ ИЛДИЗИ, ХАРАКТЕРИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 479–488. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/61669>
51. Xayrullayev U., Sayfutdinov , F., & Rahmonova , S. (2025). SHAYBONIYLAR DAVLATI VA USMONLI TURKLAR DAVLATI O'RTASIDAGI DASTLABKI ALOQALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 4(1), 147–154. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60142>
52. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
53. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755–757.
54. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132–135.
55. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 59–67.
56. Sadullayev, U., Muyiddinov, B., & Boltayev, O. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. *Modern Science and Research*, 4(1), 52–58.
57. Sadullayev, U. (2024). Zamonaviy o'zbek mahallalarida ijtimoiy o'zgarishlar. *Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice*, 2(10), 284–294.

58. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). SOCIO-PHILOSOPHICAL AND PEDAGOGICAL BASIS OF THE CONCEPT OF TOLERANCE. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.
59. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA'LIM-TARBIYAGA OID G'OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 55-69.
60. Akmalovna, Q. G., & Asror, A. A. (2023). Formation of Religious Ceremonies. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(3), 167-172.